


O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.07.2021 yildagi PQ-5199-son

Излаш

| Кучга кириш санаси | 29.07.2021 |
| --- | --- |
| Қўшимча ахборот | Улашиш |




Sog‘liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida

1-ILOVA
2021-yil 1-oktabrdan boshlab Davlat budjeti mablag‘lari hisobiga imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni elektron axborot tizimi orqali hisobga olish va navbat asosida davolanishga yo‘llash tizimiga o‘tkaziladigan tibbiyot muassasalari RO‘YXATI

2-ILOVA
Davlat budjeti mablag‘lari hisobiga imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni elektron axborot tizimi orqali hisobga olish va navbat asosida davolanishga yo‘llash tizimiga o‘tkaziladigan tibbiyot muassasalari RO‘YXATI

I. 2022-yil 1-oktabrdan boshlab o‘tkaziladigan tibbiyot muassasalari

II. 2025-yil 1-apreldan boshlab o‘tkaziladigan tibbiyot muassasalari

3-ILOVA
Imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni hisobga olish va navbat asosida davolanishga yo‘llashning elektron axborot tizimiga integratsiya qilinadigan ma’lumotlar ro‘yxati

4-ILOVA
Tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarining tug‘ruq bo‘limlari negizida tashkil etiladigan tumanlararo perinatal markazlar RO‘YXATI

5-ILOVA
Sog‘liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”

6-ILOVA
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

## SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASIDA IXTISOSLASHTIRILGAN TIBBIY YORDAM KO‘RSATISH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Aholiga yuqori malakali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatishda oshkoralik, adolatlilik va shaffoflik tamoyillari asosida zamonaviy talablarga javob beradigan samarali xizmat ko‘rsatish tizimini shakllantirish, order berish mexanizmini takomillashtirish va to‘liq raqamlashtirish maqsadida:

1. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq:

a) 2021-yil 1-oktabrdan boshlab mazkur qarorga 1-ilovada ro‘yxati keltirilgan davlat tibbiyot muassasalarida (keyingi o‘rinlarda — ixtisoslashtirilgan muassasalar) Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarga kvota asosida order berish tartibi bekor qilinadi va moliyalashtirishning yangi mexanizmi asosida ularni hisobga olish va navbat asosida davolanishga yo‘llashning elektron axborot tizimi (keyingi o‘rinlarda — axborot tizimi) joriy etiladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Belgilansinki, imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni (O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, O‘zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e’tirof etilgan chet davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni) ixtisoslashtirilgan muassasalarga davolanishga yo‘llashda:

*(1-band “a” kichik bandining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrdagi PQ-371-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 24.11.2023-y., 07/23/371/0880-son)*

kasallikning og‘irlik darajasidan kelib chiqib axborot tizimi orqali navbatda turishning shaffof mexanizmlari tatbiq etiladi;

kam ta’minlangan oilalarga mansub shaxslar toifasiga kiruvchi fuqarolar “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimiga muvofiq aniqlanadi;

bemorlarga o‘zlarining so‘rovlari, murojaatlari hamda navbati haqidagi axborotni real vaqt rejimida olish imkoniyati ta’minlanadi;

bemorlarga, ularning kasalligiga muvofiq ixtisoslashtirilgan muassasalarda davolanishlarini ta’minlaydigan, tibbiy xizmatning qiymati ko‘rsatilgan hamda matritsali shtrix kod (QR-kod)ga ega bo‘lgan yo‘llanma (keyingi o‘rinlarda — yo‘llanma) beriladi;

*Oldingi tahrirga qarang.*

yo‘llanma axborot tizimida avtomatik tarzda shakllantiriladi va davlat yoki nodavlat tibbiyot tashkilotlarida tibbiy xizmatlar olish huquqini beradi. Bunda, yo‘llanma tasdiqlangandan so‘ng 60 kun mobaynida bemor tomonidan tegishli tibbiyot tashkilotiga murojaat qilinmaganda ushbu yo‘llanma o‘z kuchini yo‘qotadi;

*(1-band “a” kichik bandining yettinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi PQ-12-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.01.2023-y., 07/23/12/0041)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

bemor davolanganidan so‘ng Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi davolagan muassasaga bazaviy narxlar doirasida bemorga ko‘rsatilgan tibbiy xizmatlarni asoslovchi hujjatlarga muvofiq, sarflangan mablag‘ni Davlat budjeti hisobidan o‘tkazib beradi. Bunda, yo‘llanma asosida bemorlarni davolaydigan davlat tibbiyot tashkilotlari tomonidan barcha shaxslarga shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatishda qilingan haqiqiy xarajatlar ko‘rsatilgan tibbiy xizmatlarni asoslovchi hujjatlarga muvofiq Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi tomonidan Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qoplab beriladi.

*(1-band “a” kichik bandining sakkizinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-oktabrdagi PQ-411-son qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 27.10.2022-y., 07/22/411/0961-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

b) quyidagilar:

2021-yil 1-noyabrdan ko‘z mikroxirurgiyasi va urologiya;

2022-yil 1-yanvardan kardiologiya, travmatologiya va ortopediya hamda akusherlik va ginekologiya;

2022-yil 1-iyuldan xirurgiya va neyroxirurgiya;

2024-yil 1-yanvardan otorinolaringologiya va yuz-jag‘ kasalliklari yo‘nalishlaridagi tibbiy xizmatlar imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarga Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan nodavlat tibbiyot tashkilotlari tomonidan ko‘rsatilishiga ruxsat berilsin.

*(1-bandning “b” kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-avgustdagi PQ-255-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 02.08.2023-y., 07/23/255/0551-son)*

v) amaldagi order berish tartibiga asosan rasmiylashtirilgan orderlardan 2022-yilning 1-yanvariga qadar foydalanish mumkin;

*Oldingi tahrirga qarang.*

g) 2022-yil 1-oktabrdan boshlab mazkur qarorga 2-ilovaga muvofiq davlat tibbiyot muassasalarida moliyalashtirishning yangi mexanizmi asosida Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni elektron axborot tizimi orqali hisobga olish va navbat asosida davolanishga yo‘llash tartibi joriy etiladi. Mazkur tartib joriy etilgunga qadar ushbu davlat tibbiyot muassasalari Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi orqali O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan taqsimotga muvofiq xarajatlar tasnifining bir satrida moliyalashtiriladi. Bunda, tibbiyot muassasalari tomonidan budjet mablag‘lari hisobidan ko‘rsatilgan tibbiy xizmatlar bo‘yicha Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasiga oylik hisobot taqdim etiladi.

Belgilansinki, mazkur qarorning 2-ilovasida nazarda tutilgan davlat tibbiyot muassasalarining shoshilinch tibbiy yordam, gemodializ, tug‘ruq, bolalar va yuqumli kasalliklar bo‘linmalarini saqlash xarajatlari Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan xarajatlar smetasini ro‘yxatga olish asosida moliyalashtiriladi, qolgan barcha bo‘linmalarning imtiyozga ega bemorlarga ko‘rsatiladigan tibbiy xizmatlar bo‘yicha xarajatlari bazaviy narxlarda Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi orqali qoplab beriladi”;

*(1-bandning “g” kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-oktabrdagi PQ-411-son qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 27.10.2022-y., 07/22/411/0961-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

d) imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslar tibbiy xizmat ko‘rsatadigan Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi bilan shartnomasi mavjud davlat yoki nodavlat tibbiyot tashkilotlarini o‘z xohishiga ko‘ra erkin tanlash huquqiga ega bo‘ladi;

e) imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarga Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi nodavlat tibbiyot tashkilotlariga qo‘yiladigan talablar Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi;

j) nodavlat tibbiyot tashkilotlari tomonidan imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarga tibbiy xizmat ko‘rsatish Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi bilan tuziladigan shartnoma asosida bazaviy narxlardan kelib chiqib amalga oshiriladi;

z) Sog‘liqni saqlash vazirligi Moliya vazirligi bilan birgalikda mazkur qarorning 2-ilovasida nazarda tutilgan davlat tibbiyot muassasalarida Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan davolanadigan kasalliklar ro‘yxatini tasdiqlaydi.

*(1-band O‘zbekiston O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-oktabrdagi PQ-411-son qaroriga asosan “d”, “e”, “j” va “z” kichik bandlar bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 27.10.2022-y., 07/22/411/0961-son)*

2. Belgilab qo‘yilsinki, imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarga ko‘rsatilgan tibbiy xizmatlar sifatini baholash hamda ularning tasdiqlangan standartlarga muvofiqligini, ajratilgan mablag‘lar samaradorligi va natijadorligini nazorat qilish Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi tomonidan amalga oshiriladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(2-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-sentabrdagi PQ-311-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 11.09.2024-y., 07/24/311/0700-son)*

3. Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasiga qo‘shimcha 8 ta shtat birligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-apreldagi “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining tuzilmasini maqbullashtirish va shtat birliklari sonini qisqartirish to‘g‘risida”gi PQ-5053-son qaroriga muvofiq maqbullashtirilgan shtat birliklari hisobidan ajratilsin.

Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimi tashkilotlari xodimlarining belgilangan umumiy cheklangan soni hamda Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasining 14 ta bosh mutaxassisi lavozimlari kiritilsin va ular sog‘liqni saqlash hududiy boshqaruv organlarida joylashtirilsin.

Sog‘liqni saqlash vazirining birinchi o‘rinbosari A. Inoyatov rahbarligida imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni davolash va moliyalashtirish bilan bog‘liq huquqiy, moliyaviy va boshqa tashkiliy masalalarni hal qilish bo‘yicha ishchi guruh tashkil etilsin va u mazkur yo‘nalishda Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi faoliyatiga ko‘maklashib borsin.

Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi Kuzatuv kengashiga (L. Tuychiyev), zarur hollarda, Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ijro etuvchi apparatining tasdiqlangan tuzilmasiga boshqaruv xodimlarining cheklangan soni doirasida o‘zgartirishlar kiritish huquqi berilsin.




Sog‘liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida

1-ILOVA
2021-yil 1-oktabrdan boshlab Davlat budjeti mablag‘lari hisobiga imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni elektron axborot tizimi orqali hisobga olish va navbat asosida davolanishga yo‘llash tizimiga o‘tkaziladigan tibbiyot muassasalari RO‘YXATI

2-ILOVA
Davlat budjeti mablag‘lari hisobiga imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni elektron axborot tizimi orqali hisobga olish va navbat asosida davolanishga yo‘llash tizimiga o‘tkaziladigan tibbiyot muassasalari RO‘YXATI

I. 2022-yil 1-oktabrdan boshlab o‘tkaziladigan tibbiyot muassasalari

II. 2025-yil 1-apreldan boshlab o‘tkaziladigan tibbiyot muassasalari

3-ILOVA
Imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni hisobga olish va navbat asosida davolanishga yo‘llashning elektron axborot tizimiga integratsiya qilinadigan ma’lumotlar ro‘yxati

4-ILOVA
Tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarining tug‘ruq bo‘limlari negizida tashkil etiladigan tumanlararo perinatal markazlar RO‘YXATI

5-ILOVA
Sog‘liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”

6-ILOVA
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

4. 2021-yil 1-oktabrdan boshlab Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni davolash uchun ixtisoslashtirilgan muassasalarni Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi bilan tuzilgan shartnomalar asosida bazaviy narxlarda moliyalashtirish mexanizmi joriy etilsin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Bunda, ixtisoslashtirilgan muassasalar bilan tuziladigan shartnomaning namunaviy shakli, oldindan to‘lov miqdorlari Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasining Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

*(4-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-maydagi PF-136-sonli Farmoniga asosan ikkinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.05.2022-y., 06/22/136/0425-son)*

Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Xadjibayev) Moliya vazirligi (T. Ishmetov) va Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi (F. Sharipov) bilan birgalikda 2021-yil 15-sentabrga qadar ixtisoslashtirilgan muassasalarni shartnoma asosida bazaviy narxlardan kelib chiqib moliyalashtirish tartibini tasdiqlasin.

Moliya vazirligi (J. Abruyev) imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni davolash uchun ixtisoslashtirilgan muassasalarga ajratilgan Davlat budjeti mablag‘larining 2021-yil 1-oktabr holatiga qoldiq qismini Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasiga o‘tkazib berilishini ta’minlasin.

5. Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Xadjibayev):

a) bir oy muddatda:

Moliya vazirligi bilan birgalikda respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarida Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan davolanadigan kasalliklar ro‘yxatini ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

Moliya vazirligi va Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi bilan kelishgan holda Davlat budjeti mablag‘lari hisobiga imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarga tashxis qo‘yish va davolash bo‘yicha tasdiqlangan standartlarga muvofiq tibbiy xizmatlarning bazaviy narxlarini shakllantirsin va ularning yangilanib borilishini ta’minlasin;

b) 2021-yil yakuniga qadar dalillarga asoslangan tibbiyotga muvofiq zamonaviy davolash-diagnostika uslub va texnologiyalarni kiritgan holda klinik protokollarni, diagnostika hamda kasalliklarni davolash standartlarini qayta ko‘rib chiqsin va tasdiqlanishini ta’minlasin.

Bunda, diagnostika va davolash sifatiga oid standartlarni yangilash bo‘yicha reja-grafikni respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari kesimida tasdiqlasin va ushbu standartlar Sog‘liqni saqlash vazirligining rasmiy veb-saytida e’lon qilib borilishini ta’minlasin.

6. Imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni hisobga olish va navbat asosida davolanishga yo‘llashning elektron axborot tizimiga integratsiya qilinadigan ma’lumotlar ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Azizov) 2021-yil 1-oktabrga qadar:

a) sog‘liqni saqlash sohasi uchun Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar hisobidan axborot tizimini ishlab chiqsin;

b) Moliya vazirligi, Mudofaa vazirligi va Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi bilan birgalikda imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni axborot tizimiga integratsiya qilinishini ta’minlasin.

7. Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va tibbiy radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi uchun Toshkent tibbiyot akademiyasi klinikasining bo‘sh turgan hududida yangi bino-inshootlar kompleksi (keyingi o‘rinlarda — kompleks) barpo etilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Belgilansinki:

kompleksning quvvati kamida 650 ta statsionar va 100 ta kunduzgi statsionar o‘rinlardan iborat bo‘ladi va 2023-yilning 1-apreliga qadar foydalanishga topshiriladi;

Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va tibbiy radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi kompleks foydalanishga topshirilgandan keyin unga ushbu markazning Toshkent shahar va Toshkent viloyati filiallarini qo‘shib olish yo‘li bilan qayta tashkil etiladi.

Toshkent shahar hokimligi (J. Artikxodjayev), Qurilish vazirligi (B. Zakirov), Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Xadjibayev) Koreya Respublikasi tajribasini hamda zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlashni hisobga olgan holda kompleksni qurish va jihozlash bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqib, 2021-yilning yakuniga qadar qurilish ishlarini boshlasin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-maydagi PQ-5130-son qarori bilan tashkil etilgan Respublika gematologiya, onkologiya va radiologiya markazlari faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha ishchi guruhi (B. Musayev)ga:

a) belgilangan muddatlarda kompleksni foydalanishga topshirish, sohadagi ilg‘or xorijiy tibbiyot muassasalarining tajribasidan kelib chiqqan holda uning faoliyatini yo‘lga qo‘yish, bu borada tashkiliy, moliyaviy, moddiy-texnik va boshqa masalalarni o‘z vaqtida hal qilish;

b) Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va tibbiy radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi uchun:




Sog‘liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida

1-ILOVA
2021-yil 1-oktabrdan boshlab Davlat budjeti mablag‘lari hisobiga imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni elektron axborot tizimi orqali hisobga olish va navbat asosida davolanishga yo‘llash tizimiga o‘tkaziladigan tibbiyot muassasalari RO‘YXATI

2-ILOVA
Davlat budjeti mablag‘lari hisobiga imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni elektron axborot tizimi orqali hisobga olish va navbat asosida davolanishga yo‘llash tizimiga o‘tkaziladigan tibbiyot muassasalari RO‘YXATI

I. 2022-yil 1-oktabrdan boshlab o‘tkaziladigan tibbiyot muassasalari

II. 2025-yil 1-apreldan boshlab o‘tkaziladigan tibbiyot muassasalari

3-ILOVA
Imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni hisobga olish va navbat asosida davolanishga yo‘llashning elektron axborot tizimiga integratsiya qilinadigan ma’lumotlar ro‘yxati

4-ILOVA
Tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarining tug‘ruq bo‘limlari negizida tashkil etiladigan tumanlararo perinatal markazlar RO‘YXATI

5-ILOVA
Sog‘liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”

6-ILOVA
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar




Sog'liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

1-ILOVA
2021-yil 1-oktabrdan boshlab Davlat budjeti mablag'lari hisobiga imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni elektron axborot tizimi orqali hisobga olish va navbat asosida davolanishga yo'llash tizimiga o'tkaziladigan tibbiyot muassasalari RO'YXATI

2-ILOVA
Davlat budjeti mablag'lari hisobiga imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni elektron axborot tizimi orqali hisobga olish va navbat asosida davolanishga yo'llash tizimiga o'tkaziladigan tibbiyot muassasalari RO'YXATI

I. 2022-yil 1-oktabrdan boshlab o'tkaziladigan tibbiyot muassasalari

II. 2025-yil 1-apreldan boshlab o'tkaziladigan tibbiyot muassasalari

3-ILOVA
Imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni hisobga olish va navbat asosida davolanishga yo'llashning elektron axborot tizimiga integratsiya qilinadigan ma'lumotlar ro'yxati

4-ILOVA
Tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarining tug'ruq bo'limlari negizida tashkil etiladigan tumanlararo perinatal markazlar RO'YXATI

5-ILOVA
Sog'liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"

6-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

2021/2022 oʻquv yilidan boshlab oliy tibbiy taʼlim muassasalari magistraturasi va klinik ordinaturasida tor soha mutaxassislarini tayyorlash;

Respublika oʻrta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi tomonidan oʻrta tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish;

Sogʻliqni saqlash vazirligi (A. Xadjibayev), Tashqi ishlar vazirligi (A. Kamilov), Oʻzbekiston Respublikasining Koreya Respublikasidagi elchixonasi (V. Fen) bilan birgalikda Koreya Respublikasining yetakchi ilmiy va tibbiyot markazlari bilan hamkorlikda onkologiya, gematologiya, radiologiya, klinik immunologiya, yuqori texnologik transfuziologiya, laboratoriya va boshqa yoʻnalishlar boʻyicha kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkillashtirish vazifalari yuklatilsin.

9. Sogʻliqni saqlash vazirligi va Moliya vazirligining 2021-yil 1-avgustdan boshlab onkologiya, onkogematologiya va gematologiya muassasalarining palliativ yordam koʻrsatish boʻlimlari shifokorlari, oʻrta va kichik tibbiyot xodimlari lavozim maoshiga mehnatning sogʻliq uchun oʻta xavfli sharoitlari uchun 25 foiz miqdorida har oylik ustama haq toʻlash haqidagi taklifi maʼqullansin.

10. Sogʻliqni saqlash vazirligi (E. Basitxanova) Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda 2022-yil 1-yanvardan boshlab bosqichma-bosqich:

tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarining 46 ta tugʻuruq boʻlimlari negizida 4-ilovaga muvofiq tumanlararo perinatal markazlarni amaldagi shtatlar doirasida tashkil etish;

onalar, yangi tugʻilgan chaqaloqlar va bolalar uchun hududlarda samarali perinatal, neonatal va pediatrik xizmatlarni olish imkoniyatini yaratish;

mintaqaviy perinatal markazlarni takomillashtirish va 3-darajali akusherlik muassasalarini belgilangan talablarga muvofiq jihozlash choralarini koʻrsin.

Sogʻliqni saqlash vazirligi (A. Azizov) Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (Sh. Vafayev) bilan birgalikda 2021-yil 1-noyabrga qadar xalqaro moliya tashkilotlarining kredit mablagʻlarini maqbullashtirish hisobiga respublikadagi tugʻuruqqa yordam beruvchi muassasalarni zamonaviy tibbiy jihozlar bilan taʼminlash uchun xalqaro moliya tashkilotlari bilan muzokaralar oʻtkazsin.

11. Sogʻliqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam koʻrsatish tizimini yanada takomillashtirish boʻyicha “Yoʻl xaritasi” 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

12. Sogʻliqni saqlash vazirligi (A. Xadjibayev):

a) 2021-yil 1-sentabrga qadar:

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda Sogʻliqni saqlash vazirligi va uning hududiy organlarida imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarga respublika miqyosida tibbiy xizmatlarni koʻrsatish, ularning murojaatlarini qabul qilish, maslahat berish va axborot taqdim etishga moʻljallangan yagona qisqa raqamli bepul “tezkor aloqa”ni yoʻlga qoʻysin;

oilaviy shifokor punktlari, oilaviy poliklinikalar va tuman (shahar) koʻp tarmoqli markaziy poliklinikalari binolarida, Sogʻliqni saqlash vazirligi va ixtisoslashtirilgan muassasalarning rasmiy veb-saytlarida Davlat budjeti mablagʻlari hisobidan qoplanadigan tibbiy yordamning hajmlari, ixtisoslashtirilgan bepul tibbiy yordamni koʻrsatish shartlari va tartibi toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni joylashtirish hamda targʻibot materiallarini tarqatish choralarini koʻrsin;

b) 2021-yil 1-oktabrdan boshlab ixtisoslashtirilgan muassasalarning rasmiy veb-saytlarida boʻlimlar kesimida mavjud oʻrinlar soni, shu jumladan boʻsh oʻrinlar soni, koʻrsatiladigan tibbiy xizmatlar turlari va narxlari joylashtirilishini va muntazam yangilanib borilishini taʼminlasin;

v) Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Oʻzbekiston Milliy axborot agentligi, Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi hamda Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan hamkorlikda ixtisoslashtirilgan muassasalarda imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni davolash boʻyicha joriy etilayotgan mexanizmlarning mazmun-mohiyati keng jamoatchilikka ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, rasmiy veb-saytlar, shuningdek, boshqa axborot resurslari orqali, shu jumladan matbuot anjumanlari, brifinglar, press-klub muhokamalarini tashkil etish orqali tezkor yetkazilishi, tushuntirilishi va keng yoritilishini taʼminlasin.

13. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining va Oʻzbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga 6-ilovaga muvofiq oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilsin.

14. Sogʻliqni saqlash vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan oʻzgartirish va qoʻshimchalar toʻgʻrisida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

15. Ushbu qarorning ijrosini samarali tashkil etishga masʼul va shaxsiy javobgar etib sogʻliqni saqlash vaziri A.M. Xadjibayev, uning oʻrinbosarlari A.Sh. Inoyatov, A.A. Azizov, U.Y. Sobirov, E.I. Basitxanova, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari belgilansin.

Qarorning oʻz vaqtida va natijali ijro etilishini nazorat qilish Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vazirining oʻrinbosari B.A. Musayev va Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti

maslahatchisining birinchi o‘rinbosari L.N. To‘ychiyev zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi yuzasidan har chorakda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot berib borilsin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,
2021-yil 28-iyul,
PQ-5199-son




Sog‘liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida

1-ILOVA
2021-yil 1-oktabrdan boshlab Davlat budjeti mablag‘lari hisobiga imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni elektron axborot tizimi orqali hisobga olish va navbat asosida davolanishga yo‘llash tizimiga o‘tkaziladigan tibbiyot muassasalari RO‘YXATI

2-ILOVA
Davlat budjeti mablag‘lari hisobiga imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni elektron axborot tizimi orqali hisobga olish va navbat asosida davolanishga yo‘llash tizimiga o‘tkaziladigan tibbiyot muassasalari RO‘YXATI

I. 2022-yil 1-oktabrdan boshlab o‘tkaziladigan tibbiyot muassasalari

II. 2025-yil 1-apreldan boshlab o‘tkaziladigan tibbiyot muassasalari

3-ILOVA
Imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni hisobga olish va navbat asosida davolanishga yo‘llashning elektron axborot tizimiga integratsiya qilinadigan ma’lumotlar ro‘yxati

4-ILOVA
Tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarining tug‘ruq bo‘limlari negizida tashkil etiladigan tumanlararo perinatal markazlar RO‘YXATI

5-ILOVA
Sog‘liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”

6-ILOVA
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2021-yil 28-iyuldagi
PQ-5199-son qaroriga
1-ILOVA

## 2021-yil 1-oktabrdan boshlab Davlat budjeti mablag‘lari hisobiga imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni elektron axborot tizimi orqali hisobga olish va navbat asosida davolanishga yo‘llash tizimiga o‘tkaziladigan tibbiyot muassasalari

RO‘YXATI

1. Akademik V. Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.

2. Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.

3. Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.

4. Respublika ixtisoslashtirilgan ko‘z mikroxirurgiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.

5. Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va tibbiy reabilitatsiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

6. Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.

*(6-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-sentabrdagi PQ-311-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 11.09.2024-y., 07/24/311/0700-son)*

7. Akademik Y.X. To‘raqulov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.

8. Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.

9. Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.

10. Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.

11. Respublika ixtisoslashtirilgan travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.

12. Respublika ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.

13. Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va tibbiy radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.

14. Bolalar milliy tibbiyot markazi.

*Izoh: Sog‘liqni saqlash vazirligiga Moliya vazirligi bilan kelishgan holda mazkur ro‘yxatga boshqa tibbiyot muassasalarini kiritish vakolati beriladi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2021-yil 28-iyuldagi
PQ-5199-son qaroriga
2-ILOVA

## Davlat budjeti mablag‘lari hisobiga imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni elektron axborot tizimi orqali hisobga olish va navbat asosida davolanishga yo‘llash tizimiga o‘tkaziladigan tibbiyot muassasalari

**RO‘YXATI**

### I. 2022-yil 1-oktabrdan boshlab o‘tkaziladigan tibbiyot muassasalari

1. Respublika ilmiy-ixtisoslashtirilgan allergologiya markazi.

2. Respublika xirurgik angionevrologiya ixtisoslashtirilgan markazi.

3. Respublika ko‘z kasalliklari klinik shifoxonasi.

4. Respublika teri-tanosil kasalliklari klinik shifoxonasi.

5. Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazining ko‘p tarmoqli klinikasi.

6. Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasi.

7. Samarqand davlat tibbiyot universiteti klinikasi.

8. Toshkent tibbiyot akademiyasi ko‘p tarmoqli klinikasi.

9. Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali klinikasi.

10. Toshkent davlat stomatologiya instituti klinikasi.




Sog'liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida

1-ILOVA
2021-yil 1-oktabrdan boshlab Davlat budjeti mablag'lari hisobiga imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni elektron axborot tizimi orqali hisobga olish va navbat asosida davolanishga yo'llash tizimiga o'tkaziladigan tibbiyot muassasalari RO'YXATI

2-ILOVA
Davlat budjeti mablag'lari hisobiga imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni elektron axborot tizimi orqali hisobga olish va navbat asosida davolanishga yo'llash tizimiga o'tkaziladigan tibbiyot muassasalari RO'YXATI

I. 2022-yil 1-oktabrdan boshlab o'tkaziladigan tibbiyot muassasalari

II. 2025-yil 1-apreldan boshlab o'tkaziladigan tibbiyot muassasalari

3-ILOVA
Imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni hisobga olish va navbat asosida davolanishga yo'llashning elektron axborot tizimiga integratsiya qilinadigan ma'lumotlar ro'yxati

4-ILOVA
Tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarining tug'ruq bo'limlari negizida tashkil etiladigan tumanlararo perinatal markazlar RO'YXATI

5-ILOVA
Sog'liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"

6-ILOVA
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

11. Orolbo'yi mintaqasi ixtisoslashtirilgan kardiologiya va kardioxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.

12. Toshkent shahar tibbiy reabilitatsiya klinik shifoxonasi.

*Izoh:*
*Toshkent shahar tibbiy reabilitatsiya klinik shifoxonasi tomonidan Chernobil AESi falokatini tugatishda ishtirok etgan va yadro poligonida harbiy xizmatni o'tagan shaxslarga tibbiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlar Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi orqali moliyalashtiriladi;*
*amaldagi order berish tartibiga asosan rasmiylashtirilgan orderlardan 2023-yilning 1-yanvariga qadar foydalanish mumkin;*
*Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasi qurilish-ta'mirlash va jihozlash ishlari yakunlangunga qadar Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi orqali bajarilgan ish hajmiga bog'lanmagan holda vaqtinchalik bir satrda moliyalashtiriladi.*

*Oldingi tahrirga qarang.*

## II. 2025-yil 1-apreldan boshlab o'tkaziladigan tibbiyot muassasalari

*(II bo'limning nomi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 29-noyabrdagi PQ-408-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.12.2024-y., 07/24/408/1005-son)*

1. Respublika ixtisoslashtirilgan otorinolaringologiya va bosh-bo'yin kasalliklari ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.

2. Respublika ixtisoslashtirilgan gematologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.

3. Bolalar onkologiyasi, gematologiyasi va immunologiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.

4. Respublika ixtisoslashtirilgan nefrologiya va buyrak transplantatsiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi.

5. Toshkent pediatriya tibbiyot instituti klinikasi.

6. Buxoro davlat tibbiyot instituti klinikasi.

7. Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti klinikasi.

8. Respublika perinatal markazi.

9. Respublika bolalar ortopediyasi markazi.

10. Respublika bolalar kam invaziv va endovizual xirurgiya ilmiy-amaliy markazi.

11. Samarqand davlat tibbiyot universiteti ixtisoslashgan bolalar xirurgik klinikasi.

12. Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi Reabilitologiya va sport tibbiyoti ilmiy-tadqiqot instituti klinikasi.

*Izoh: Sog'liqni saqlash vazirligiga Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishgan holda mazkur ro'yxatga boshqa tibbiyot muassasalarini kiritish vakolati beriladi.*

*(2-ilovaning matni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-sentabrdagi PQ-311-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.09.2024-y., 07/24/311/0700-son)*

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2021-yil 28-iyuldagi
PQ-5199-son qaroriga
3-ILOVA

## Imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni hisobga olish va navbat asosida davolanishga yo'llashning elektron axborot tizimiga integratsiya qilinadigan ma'lumotlar ro'yxati

*Oldingi tahrirga qarang.*

| T/r | Ma'lumot berish uchun mas'ul vakolatli organlar | Talab etiladigan ma'lumotlar |
|---|---|---|
| 1. | Sog'liqni saqlash vazirligi | 1. Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha ginekologik kasalliklar hamda homilador ayollarning patologik holati to'g'risida ma'lumot.<br><br>2. Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha endokrin kasalliklari to'g'risida ma'lumot.<br><br>3. Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha teri kasalliklari va jinsiy yo'l bilan yuqtiriladigan kasalliklar to'g'risida ma'lumot.<br><br>4. Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha tuberkulyoz kasalligi to'g'risida ma'lumot.<br><br>5. Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha 18 yoshga to'lmagan bolalarning patologiyasi to'g'risida ma'lumot.<br><br>6. Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha onkologiya kasalliklari to'g'risida ma'lumot. |

| | | |
|---|---|---|
| 2. | Moliya vazirligi | 1. Chin yetimlar to‘g‘risida ma’lumot.<br><br>2. Yoshga oid pensiyaga chiqqan, ishlamaydigan shaxslar to‘g‘risida ma’lumot.<br><br>3. 1941 — 1945-yillardagi urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek, ularga tenglashtirilgan shaxslar to‘g‘risida ma’lumot.<br><br>4. 1941 — 1945-yillardagi urush davrida mehnat jabhasining qatnashchilari to‘g‘risida ma’lumot.<br><br>5. Chernobil AES falokatini tugatishda ishtirok etgan shaxslar jumlasiga kiruvchi nogironlar to‘g‘risida ma’lumot.<br><br>6. “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali aniqlangan kam ta’minlangan oilalarga mansub shaxslar to‘g‘risida ma’lumot. |
| 3. | Mudofaa vazirligi | 1. Baynalmilalchi-jangchilar to‘g‘risida ma’lumot.<br><br>2. Chaqiruv komissiyalarining yo‘llanmalari bo‘yicha chaqiruv yoshidagi (18 — 27 yoshdagi) shaxslar to‘g‘risida ma’lumot. |
| 4. | Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi | 1. Bolalikdan nogironlar to‘g‘risida ma’lumot.<br><br>2. I va II guruh nogironlari to‘g‘risida ma’lumot. |
| 5. | Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati, Bojxona qo‘mitasi, Elektron texnologiyalarni rivojlantirish markazi | Vatan himoyasi va el-yurt tinchligi yo‘lida yaralanganligi, kontuziya yoki mayib bo‘lganligi oqibatida halok bo‘lgan harbiy xizmatchining (xodimning) oila a’zolari to‘g‘risidagi ma’lumot |

*(3-ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-sentabrdagi PF-159-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.09.2023-y., 06/23/159/0700-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2021-yil 28-iyuldagi
PQ-5199-son qaroriga
4-ILOVA

## Tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarining tug‘ruq bo‘limlari negizida tashkil etiladigan tumanlararo perinatal markazlar

RO‘YXATI

| T/r | Tashkilot nomi | Hududlar |
|---|---|---|
| 1. | Chimboy tumani tibbiyot birlashmasi tug‘ruq bo‘limi | **Qoraqalpog‘iston Respublikasi** |
| 2. | Beruniy tumani tibbiyot birlashmasi tug‘ruq bo‘limi | |
| 3. | Qo‘ng‘irot shahar tug‘ruq majmuasi | |
| 4. | Paxtaobod tumani tibbiyot birlashmasi tug‘ruq bo‘limi | **Andijon viloyati** |
| 5. | Qo‘rg‘ontepa tumani tibbiyot birlashmasi tug‘ruq bo‘limi | |
| 6. | Shahrixon tumani tibbiyot birlashmasi tug‘ruq bo‘limi | |
| 7. | G‘ijduvon shahar tibbiyot birlashmasi tug‘ruq bo‘limi | **Buxoro viloyati** |
| 8. | Romitan tumani tibbiyot birlashmasi tug‘ruq bo‘limi | |
| 9. | Qorako‘l tumani tibbiyot birlashmasi tug‘ruq bo‘limi | |
| 10. | G‘allaorol tumani tibbiyot birlashmasi tug‘ruq bo‘limi | **Jizzax viloyati** |
| 11. | Zomin tumani tibbiyot birlashmasi tug‘ruq bo‘limi | |
| 12. | Paxtakor tumani tibbiyot birlashmasi tug‘ruq bo‘limi | |
| 13. | Shahrisabz shahar tibbiyot birlashmasi tug‘ruq bo‘limi | **Qashqadaryo viloyati** |
| 14. | Nishon tumani tibbiyot birlashmasi tug‘ruq bo‘limi | |
| 15. | Chiroqchi tumani tibbiyot birlashmasi tug‘ruq bo‘limi | |
| 16. | Koson tumani tibbiyot birlashmasi tug‘ruq bo‘limi | |




Sog‘liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida

1-ILOVA
2021-yil 1-oktabrdan boshlab Davlat budjeti mablag‘lari hisobiga imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni elektron axborot tizimi orqali hisobga olish va navbat asosida davolanishga yo‘llash tizimiga o‘tkaziladigan tibbiyot muassasalari RO‘YXATI

2-ILOVA
Davlat budjeti mablag‘lari hisobiga imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni elektron axborot tizimi orqali hisobga olish va navbat asosida davolanishga yo‘llash tizimiga o‘tkaziladigan tibbiyot muassasalari RO‘YXATI

I. 2022-yil 1-oktabrdan boshlab o‘tkaziladigan tibbiyot muassasalari

II. 2025-yil 1-apreldan boshlab o‘tkaziladigan tibbiyot muassasalari

3-ILOVA
Imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarni hisobga olish va navbat asosida davolanishga yo‘llashning elektron axborot tizimiga integratsiya qilinadigan ma’lumotlar ro‘yxati

4-ILOVA
Tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarining tug‘ruq bo‘limlari negizida tashkil etiladigan tumanlararo perinatal markazlar RO‘YXATI

5-ILOVA
Sog‘liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”

6-ILOVA
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

| | | |
|---|---|---|
| 17. | Zarafshon shahar tibbiyot birlashmasi tug'ruq bo'limi | **Navoiy viloyati** |
| 18. | Xatirchi tumani tibbiyot birlashmasi tug'ruq bo'limi | |
| 19. | Navbahor tumani tibbiyot birlashmasi tug'ruq bo'limi | |
| 20. | Uychi tumani tibbiyot birlashmasi tug'ruq bo'limi | **Namangan viloyati** |
| 21. | Yangiqo'rg'on tumani tibbiyot birlashmasi tug'ruq bo'limi | |
| 22. | Chust tumani tibbiyot birlashmasi tug'ruq bo'limi | |
| 23. | Pastdarg'om tumani tibbiyot birlashmasi tug'ruq bo'limi | **Samarqand viloyati** |
| 24. | Kattaqo'rg'on shahar tibbiyot birlashmasi tug'ruq bo'limi | |
| 25. | Urgut tumani tibbiyot birlashmasi tug'ruq bo'limi | |
| 26. | Payariq tumani tibbiyot birlashmasi tug'ruq bo'limi | |
| 27. | Yangiyer shahar tibbiyot birlashmasi tug'ruq bo'limi | **Sirdaryo viloyati** |
| 28. | Sirdaryo tumani tibbiyot birlashmasi tug'ruq bo'limi | |
| 29. | Oqoltin tumani tibbiyot birlashmasi tug'ruq bo'limi | |
| 30. | Boysun tumani tibbiyot birlashmasi tug'ruq bo'limi | **Surxondaryo viloyati** |
| 31. | Sherobod tumani tibbiyot birlashmasi tug'ruq bo'limi | |
| 32. | Qumqo'rg'on tumani tibbiyot birlashmasi tug'ruq bo'limi | |
| 33. | Olmaliq shahar tibbiyot birlashmasi tug'ruq bo'limi | **Toshkent viloyati** |
| 34. | Yangiyo'l shahar tibbiyot birlashmasi tug'ruq bo'limi | |
| 35. | Bekobod shahar tibbiyot birlashmasi tug'ruq bo'limi | |
| 36. | Toshkent tumani tibbiyot birlashmasi tug'ruq bo'limi | |
| 37. | Quyichirchiq tumani tibbiyot birlashmasi tug'ruq bo'limi | |
| 38. | Qo'qon shahar tug'ruq majmuasi | **Farg'ona viloyati** |
| 39. | Marg'ilon shahar tug'ruq majmuasi | |
| 40. | Beshariq tumani tibbiyot birlashmasi tug'ruq bo'limi | |
| 41. | Bog'ot tumani tibbiyot birlashmasi tug'ruq bo'limi | **Xorazm viloyati** |
| 42. | Yangibozor tumani tibbiyot birlashmasi tug'ruq bo'limi | |
